



LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKDA KONSEPT TUSHUNCHASI VA “JINS” KONSEPTINING VOQEALANISHI

Sidiqova Feruza

Qarshi davlat universiteti

Lingvistika: o‘zbek tili

2-kurs magistranti


Annotatsiya: Mazkur maqolada lingvomadaniyatshunoslik bo‘yicha umumiy qarashlar yoritilgan. Konsept terminining lingvomadaniyatdagi o‘rni turk va o‘zbek tili misolida tahlil qilinadi. Shuningdek “jins” konseptining mumtoz poetik nutqdagi ahamiyati tahlillar orqali muhokama qilinadi.

Tayanch so‘z va iboralar: lingvomadaniyat, konsept, “jins” konsepti, assosiativ birliklar.

Kirish. So‘nggi yillarda tilshunoslikdagi o‘zgarishlar matn tahlilida yangicha nazariya va yondashuvlarni olib kirdi. Jahon tilshunosligidagi qator ilmiy izlanishlar asosida tilshunoslikning zamonaviy sohalarini shakllandi. Shu jumladan, tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri hisoblangan lingvomadaniyat ham ushbu sohalar qatoridan joy egalladi. Til va madaniyatning o‘zaro ta‘siri muammolariga e‘tibor qaratadigan madaniy tilshunoslik sohasi XX asrning oxirlarida shakllana boshlagan.

Asosiy qism. Lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.E.Gumboltga borib taqalishini ta‘kidlaydilar. Tilda milliy ma‘naviyat, dunyoqarash o‘z aksini topishi haqida fikrlarini aytarkan: “Biz dunyoni tilimiz yaratgandek ko‘ramiz” degan g‘oyani ilgari suradi. Til va madaniyatning bog‘liqligi, madaniyatning tilda aks etishi bilan bog‘liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardagina boshlandi. Jumladan, V.V.Vorobyov, V.M.Shaklein, V.A.Maslova, V.N.Teliyalarning ishlari bunga asos bo‘la oladi.

O‘zbek tilshunosligida ham bu yo‘lda qator izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, “til va madaniyat” masalalarida eng ko‘p shug‘ullangan, lingvomadaniyatning ilmiy asoslanishi singari bir qator masalalariga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida M.Nasrullayeva, G.Ergasheva, K.Raximovning ishlari, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab”, A.Nurmonovning “O‘zbek tilida lingvomadaniy yo‘nalish”, N.Saidrahimovning “Lingvomadaniyatning ilmiy asoslanishiga doir





ayrim mulohazalar”, “Lingvomadaniyatshunoslikning komponentlari” nomli maqolalarni misol keltirishimiz mumkin.

Lingvomadaniyat haqida gapirarkanmiz, uning markaziy tushunchasi konsept ekanligini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Konsept termini o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqotlarda yaqindan qo‘llanilishiga qaramay samarali ilmiy ishlar qilindi. Professor N.Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o‘rganilishi xususida shunday yozadi: “Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e’tibor qaratilmoqda, internet materiallari bila tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunoslikda bu yo‘nalish nihoyatda keng tarqalganini ko‘rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog‘iga yetish mushkul. Hatto so‘nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda kata qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag‘ishlangan”¹.

Konsept atamasi barcha atoqli tilshunoslar tomonidan atroflicha tadqiq qilinib, ularning barchasi bu tushunchaga individual yondashadi va talqin qilishadi. Y.A.Stepanov, S.A.Askoldov² hamda V.A.Maslovaning³ ilmiy tadqiqotlarida konsept atamasi keng yoritilgan. Xulosalar shuni ko‘rsatadiki, Y.A.Stepanov va S.A.Askoldovning fikri bir biriga juda yaqin bo‘lib, ular konseptni “ mantiqiy kategoriya” sifatida talqin etishadi. Ya’ni Askoldovning fikricha “konsept bu madaniyat elementlaridan birining kishi tafakkurida shakllangan shaklidir, xuddi shu shaklda madaniyat kishining mental dunyosiga kirib boradi”.

Demak, konsept lingvomadaniyatda eng faol qo‘llanuvchi birlik hisobanadi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Masalan:

Kızıl gül dane dane
Açılır yane yane
Babası gelsin görsün
Benim yavrum bir dane⁴.

Qizil gul dona dona
Ochilur yona yona
Otasi kelsin, ko‘rsin
Mening bolam bir dona.

¹ Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab// O‘zbek tili va adabiyoti –T.: 2012, 3-16-b

² Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.:Akademia. 1997.-С. 267-280

³ Маслова В.А. Лингвокультурология. –М.: Akademia, 2006.-С.208

⁴ www.okumay ISEV.com. TÜRK NİNNİLERİNDEN SEÇMELER. isev.org.tr






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-8

Turk allalarida farzand qizil gulga o'xshatilishi ham madaniy birlikning o'ziga xos ifodasidir. Ya'ni, bu allada ona farzandini qizil guldek yagona ekanligini, kun sayin chiroy ochib, onasining ko'z o'ngida ulg'ayib borayotganligini ta'kidlab, otaning farzandini ko'rgani kelishi va uning yagona ekanligini anglashiga umid qiladi. O'zbek lingvomadaniyatida ham farzandni gulga o'xshatish holatlari uchrab turadi. Masalan:

Gul bolani shom paytida yolg'iz chiqarmang!

Yuqoridagi misollarda ko'rishimiz mumkinki, Turk allasida farzand gulga o'xshatilganiga ishora qilinsa, bizda *gul bola* birikmasi pok, begunoh semalari orqali kishi lisoniy xotirasida assotsiatsiyalanadi.

Ma'lumki, o'zbek lingvomadaniyatida jins konsepti milliy-madaniy mohiyat kasb etadigan asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Bevosita ushbu atama haqida so'z ketganda kishilarning lisoniy xotirasida, avvalo, ota, ona, bobo, buvi aka, singil, opa, uka, amaki, tog'a kabi shaxs otlari tiklanadi. Bunday birliklar jins konsepti assotsiativ maydonning yadro qismidan o'rin egallaydi. Ularni quyidagicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.




Stimul so'z: jins

Yaqin chegara: ota, ona, bobo, buvi aka, singil, opa, uka, amaki, tog'a...

Uzoq chegara: go'zal, latofatli, baqquvat, jahldor, yosh, choyxona, muddatli harbiy xizmat, taqinchoqlar ...

Bu kabi leksemalarni kengaytirish ham mumkin. Assotsiativ maydonning uzoq chegarasidan o'rin olgan so'zlar mantiqiy-semantik jihatdan aloqasi butunlay uzilgan





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-8

soʻzlar emas. Choyxona, muddatli harbiy xizmat, taqinchoqlar kabi leksemalarni mantiqiy-semantik aloqasini quyidagicha izohlash mumkin: Asosan, bayram turli xil toʻy tadbirlarda xotin - qizlar taqinchoqlardan foydalanadi. Ushbu omil jins konsepti bilan mantiqiy- semantik jihatdan aloqani taʼminlaydi. Xuddi shunday, choyxona, muddatli harbiy xizmat kabi birliklar ham kishilarning lisoniy xotirasida erkak jinsini shakllantirishga xizmat qiladi. Assotsiatsiyalarning stimuly soʻzga maʼnoviy jihatdan kuchli bogʻlangani yaqin chegarada, kuchsiz boʻlsa uzoq chegarada joylashgan boʻladi. Yuqorida keltirilgan misollar har bir shaxsning individual qarashlari va tasavvurlari bilan bogʻliq.

“jins” konsepti mumtoz adabiyotimizda katta ahamiyatga ega boʻlgan nazmiy leksika orqali ham ifodalanadi. Bunday birliklar majoziy-ramziy koʻchma maʼnolarda yoki oʻxshatishga asoslangan tasvir vositasi vazifasida qoʻllanilib “jins” konseptini voqealanishiga xizmat qiladi. Masalan:

Qoʻnub ul gul uza bulbul chekib gul shavqida gʻul-gʻul,
Bu sarv uzra chekib gul terdin tushub shabnam. (Devoni Saʼdiy)

Ey nasimi subh, ahvolim diloromimga ayt,
Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandomimga ayt. (A.Navoiy)


Navoiy, koʻyin et manzil, yuzu qaddigʻa boʻl moyil,
Ki, bogʻ etmas seni xushdil, gulu sarv aylamas xurram. (A.Navoiy)

Sarvi gulning soyasinda soʻldi gul, netmoq kerak?
Sarvidin tobut yasab, guldand kafan bichmoq kerak. (A.Navoiy)

Labing gʻuncha, yuzung ikki qizil gul,
Qading sarvu, soching goʻyoki sunbul. (Furqat)

Ey menglari mushku, engi lola, koʻzi ohu,
Zulfing gʻamida tutti koʻngilni qora qaygʻu. (Atoy)

Yuzu gulu, qaddi shamshod, koʻzlari nargis,
Bahori yosumanimni tushumda koʻrsam edi. (Nodira)





Sen gulsenu men xaqir bulbuldurmen,
Sen shu'lasen, ul shu'laga men quldurmen. (Bobur)

Sen gul kibi to g'amzadasen husnunga mag'ur,
Bulbul kibi g'amzadamen husanunga hayron. (Bobur)

Boburo, hargiz quloq she'ringg'a ul gul solmadi,
Gulga ne parvoe, yuz faryod qilsa andalib. (Bobur)

Suhaylni ko'rdi-yu, aylandi birtek,
Kunash girdinda yurgan misli ertek,
O'zin gul bildi-yu, bulbul Suhaylni,
Uni sevdi-yu, taslim etti maylni. (Sayfi Saroyi)

Mazkur she'riy matnlarda yor obrazi o'xshatish usuli orqali o'ziga xos tasvirga ega bo'lgan. Matnda o'xshatish vositalari vazifasini bajargan sarv, sunbul, gul, g'uncha, sarv, sunbul, mushk, lola, ohu, shamshod, nargis, shu'la leksemalari orqali kitobxon ko'z oldida go'zal ayol obrazi gavdalansa, bulbul, qul leksemalari esa erkak jinsiga ishora qiladi. Bunday holat poetik nutqqa xos o'xshatish vositalarining "jins" konseptini voqealantirishda muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rsatadi. Xarakterli tomoni shundaki, bu kabi leksemalar til egalari xotirasida aynan shu belgisi bilan o'rnashganligi tufayli poetik nutqda har gal "jins" konseptini voqealantiradi. Ya'ni, gul, g'uncha, sarv, sunbul, g'uncha, ohu kabi leksemalar poetik nutqda doim yorga nisbatan qo'llanishga xoslangan bo'lib, kishilarning lisoniy xotirasida assotsiativ tarzda "ayol" konseptini yodga soladi. Yoki ayol leksemasi talaffuz etilganda xotirada gul, g'uncha, ohu kabi leksemalar yodga keladi. O'zbek tilida "jins" konsepti tilning leksik tizimida o'ziga xos lug'aviy birliklar orqali voqealanadi. Bunday birliklar "jins" konseptini voqealantiribgina qolmay ular bilan assotsiativ munosabatga kirishadi⁵.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, poetik nutqda majoziy-ramziy ma'nolarda qo'llanuvchi leksik birliklar ham mantiqiy, ham assotsiativ jihatdan "jins" konsepti bilan bog'lanadi. Yuqoridagi tahlillar natijasida konsept termini har bir shaxs

⁵ Yigitaliyev U. Maqola: o'zbek tilida jins va gender tushunchalarining funksional-semantik va kognitiv tahlili. 344-348-b.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-8

uchun individual va jamiyat uchun umummilliy bo‘lgan, ong, til va ruhiyatning bog‘liqligida kechuvchi jarayondir degan xulosaga kelishimiz mumkin. Umuman olganda, konsept lingvomadaniyatimizning markaziy tushunchasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. –М:Аkademia. 1997.
2. Mahmudov N.Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab// O‘zbek tili va adabiyoti –T.: 2012.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология. –М.: Akademia, 2006.
4. www.okumay ISEV.com. TÜRK NİNNİLERİNDEN SEÇMELER. isev.org.tr
5. Yigitaliyev U. Maqola: o‘zbek tilida jins va gender tushunchalarining funksional-semantik va kognitiv tahlili. 344-348-b.

